

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.U.Mahmudov	
<i>Zicrona caerulea</i> (Heteroptera) turining Farg'ona vodiysidagi ekologik xususiyatlari va biologik nazoratdagi ahamiyati.....	119
D.R.Kapizova, A.N.Jumayeva, Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov	
Entomofaglardagi morfologik moslanishlar haqida (koksidlir entomofaglari misolida).....	123
N.O.Odilov, M.V.Obidov	
Foydali mikroorganizmlarning o'simlik biomassasiga ta'sirini baholash	127
N.B.Fayziyeva, A.H.Vaxobov	
Loviya oddiy mozaikasi virusi (LoMV) ta'sirida transpiratsiya intensivligining fiziologik tahlili	137
Sh.X.Yusupova, G.M.Zokirova, K.H.G'aniyev, I.I.Zokirov	
No'xat shirasi (<i>Acyrtosiphon pisum</i>) mavsumiy populyatsiya dinamikasini gibrid stokastik-deterministik modellashtirish	144
E.A.Botirov	
Noctuini tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae) xilma-xillik ko'rsatkichlarining ekotopik tahlili	150
S.S.Umarov	
Farg'ona vodiysida kulrang g'oz <i>Anser anser</i> (Linnaeus, 1758) (Aves: Anatidae) ning tarqalishi va qishlovchi populyatsiyalari holati	155
E.A.Botirov	
Farg'ona vodiysi Noctuini tunlamlarining (Lepidoptera, Noctuidae) rivojlanish sikli, fenologiyasi va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari	161

GEOGRAFIYA

O.I.Abdug'aniev, E.G'.Maxkamov, KH.Abdullaeva	
Farg'ona viloyatida agroturizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va rekreatsion infratuzilmaning ahamiyati.....	167
D.G'.Mo'minov	
Landshaft va undan foydalanish imkoniyatlarining hududiy jihatlari (Farg'ona viloyati misolida) ..	176
M.R.Qoriyev, G.R.Toshmirzayeva	
Global iqlim ilishini tuproq qurg'oqchiligiga ta'siri (Shimoliy Farg'ona tuproqlari misolida).....	182
I.I.Muxitdinov	
Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari	189
B.B.Umarov	
Andijon viloyati geoekologik holatini geografik axborot tizimlari yordamida baholash	194
I.Z.Akaboyev, Z.Y.Ayubova, D.B.Ro'zmatov	
Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish	198
E.A.Soliyev, M.A.Kosimov, I.Z.Akaboyev	
Global iqlim o'zgarishi sharoitida Farg'ona vodiysi iqlimidagi o'zgarishlar	205
B.X.Kamolov	
Ekoturistik hududlarning imkoniyatlarini GAT texnologiyalari asosida aniqlash va kartalashtirish (Namangan viloyati misolida)	211
N.S.Pardaev	
Surxondaryo viloyati mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar	217
A.F.Raxmatov	
Ekologik zo'riqishni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni taminlash	222
B.Y.Zikirov, H.Z.Tilovberdiyeva	
Sirdaryo viloyatida yashil maydonlarning hududiy jihatlari va tahlili	226
O'.K.Nargizaxon	
Diniy turizmini rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati.....	232
O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov	
Ekologik karkas – jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosi sifatida	237
X.A.Abduvaliyev	
Aholi zichligini aniqlashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.....	249
G'.Z.Tovbayev	
Sirdaryo viloyati o'simlik qoplamining NDVI ko'rsatkichlar va uning gat tahlili	256



UO'K: 338.48-6:2(575)

DINIY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORATGOHLARNING O'RNINI VA AHAMIYATI**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СВЯТЫНЬ В РАЗВИТИИ РЕЛИГИОЗНОГО ТУРИЗМА****PLACE AND IMPORTANCE OF SHRINES IN THE DEVELOPMENT OF RELIGIOUS TOURISM****Nargizaxon O'rinovna Komilova**

Farg'ona davlat universiteti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi hududida joylashgan ziyoratgohlarning diniy turizm salohiyatini oshirishdagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilingan. Ziyorat turizmi mahalliy va xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uyg'otib, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, madaniy merosni asrab-avaylash va diniy qadriyatlarni ommalashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi mashhur ziyoratgohlar misolida turizm infratuzilmasini takomillashtirish, sayyohlik marshrutlarini shakllantirish va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish masalalariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ziyoratgohlarning tarixiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan hamda diniy turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan..

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение мест паломничества Ферганской долины в повышении потенциала религиозного туризма. Паломнический туризм представляет большой интерес для местных и иностранных туристов и служит важным инструментом диверсификации региональной экономики, сохранения культурного наследия и популяризации религиозных ценностей. В статье рассматриваются вопросы совершенствования туристической инфраструктуры, формирования туристических маршрутов и создания благоприятных условий для паломников на примере известных мест паломничества Андижанской, Ферганской и Наманганской областей. При этом раскрывается историческая, духовная и социальная значимость мест паломничества, даются рекомендации по развитию религиозного туризма.

Abstract

In this state, the role and significance of pilgrimage sites in the Fergana Valley and the potential increase in religious tourism are analyzed. Pilgrimage tourism is of great interest to local and foreign tourists and serves as an important tool for diversifying the regional economy, preserving cultural heritage and popularizing religious values. The article discusses the issues of improving the tourist infrastructure, forming tourist routes and creating favorable conditions for pilgrims using the example of famous pilgrimage sites in the Andijan, Ferghana and Namangan regions. At the same time, the historical, spiritual and social significance of pilgrimage sites is revealed, and recommendations for the development of religious tourism are given.

Kalit so'zlar: turizm, sayoh, ziyoratgoh, qadamjo, turistik –r yekreatsion zona, diniy turizm, sakral geografiya, madaniy meros, sayyohlik infratuzilmasi, ziyorat turizmi.

Ключевые слова: Туризм, Путешествия, паломничество, туристско –рекреационная зона, религиозный туризм, Сакральная география, культурное наследие, туристическая инфраструктура, паломнический туризм.

Key words: tourism, Sayah, shrine, kadamjo, tourist –R yekreative zone, religious tourism, sacral geography, cultural heritage, tourist infrastructure, pilgrimage tourism.

KIRISH

Jahon turizm sanoatida diniy turizm tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ayniqsa, Islom madaniyati boy bo'lgan hududlarda ziyorat turizmi mahalliy va xalqaro sayyohlarni jalb etishda katta salohiyatga ega. O'zbekistonda ham bu sohaning rivoji uchun huquqiy, infratuzilmaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Farg'ona vodiysi — tarixiy-diniy meros obyektlari jamlangan o'lka sifatida diniy turizmni rivojlantirishda muhim hududlardan biri hisoblanadi.

Diniy turizm — bu odamlarning diniy e'tiqod yoki ma'naviy ehtiyoj bilan muayyan muqaddas joylarga safar qilishini o'z ichiga oladi. Bu turdagi turizm nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirishga, balki milliy-tarixiy merosni saqlash, xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat

GEOGRAFIYA

qiladi. Shu bilan birga, joylarda yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga turtki bo'ladi. Ziyoratgohlar atrofidagi infratuzilma (yo'llar, mehmonxonalar, oshxonalar, suv va sanitariya obyektlari) turizmni rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Aksariyat ziyoratgohlarda bu jihatlar yetarli darajada taminotga ega emas. Ayrim hududlarda transport qatnovi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, axborot resurslarining kamligi, xizmat ko'rsatish sohasining past darajada rivojlanganligi turistlar oqimini cheklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonining 35- maqsadida O'zbekiston bo'ylab sayohat qilingan dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish vazifasi qo'yilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-son "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi Qarori da ham mazkur sohani rivojlantirishni geografik jihatlarini o'rganish vazifa qilib qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI.

Turizmining, jumladan diniy va ziyorat turizmining geografik jihatlarini mamlakatimizda ilk bor yagona tadqiqot obyekti sifatida Q.T.To'rayev tomonidan o'rganildi. Uning tahlili bo'yicha MDH mamlakatlari olimlari G.N.Gujina, T.T.Xristov, S.R.Yerdavletov, K.A.Mazin, T.V.Boyka, P.V.Pyatnov, T.L.Dudnik, L.B.Savenkova, A.G.Nizamiyevlarning ilmiy ishlarida ushbu soha o'rganilgan.

O'zbekistonda diniy turistik obyektlar, xususan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni o'rganishda tarixchi va iqtisodchi olimlarning xizmatlari katta. Xususan, O'zbekistonning turli hududlaridagi ziyoratgohlarning tarixiy tavsifiga oid tadqiqotlarni A.Q.Mo'minov, N.Abdulohatov, S.Djurayeva, A.A.Ashirov, Z.Abidova, F.SH.Aqchayev, A.Xudayorov kabi tarixchi va etnograf mutaxassislar bajargan. Shu bilan birga, respublikamizda diniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini M.P.Boltaboyev, M.Q.Papdayev, I.C.Tuxliyev, G'.H.Qudpatov, N.Tuxliyev, B.N.Navro'z-Zoda, T.Abdullayeva, M.M.Muhamedov, D.K.Ucmonova, M.Hoshimov, A.Nopchayev, B.X.To'payev, B.SH.Cafapov M.T.Aliyeva, Sh.P.Fayziyeva kabi iqtisodchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Mamlakatimizda turizm va rekreatsiya geografiyasiga oid tadqiqotlar, A.S.Soliyev, Z.Maxamatillayev, A.Zokirov, M.Xoshimov, A.Yusupov, R.Usmonova, I.Xasanov, M.Usmonov, A.Nigmatov, A.Nizomov, N.Shamupatova, B.Kamolov, Sh.Yakubjonova, Sh.Shomupodova, M.Mahmudov va boshqa geograflar tomonidan olib borilgan va amalga oshirilmoqda.

Diniy turistik obyektlar, xususan ziyoratgohlarning joylashuvi, mintaqalarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini baholashga oid masalalar Y.I.Ahmadaliyev, G'.R.Pardayev, S.I.Abdullayev, A.Nizomov, Sh.Shomurodova, M.Mahmudovlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR.

Turizm (fransuzcha sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish, dam olish degan ma'noni bildiradi. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Zamonaviy turizm tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiya uchun uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblangan ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng, u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyoxlik guruxlarini AQShga jo'natgan.

Sayohat va turizm —butun dunyoda juda tez rivojlanayotgan iqtisodiy sohalardan biri hisoblanadi. Turizm industriyasi iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega bo'lib, asosan daromad manbai sifatida namoyon bo'ladi. U sayohatchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, hududning tabiiy, madaniy-tarixiy va inson resurslaridan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. **Diniy turizm**, ya'ni **ziyosat turizmi**, **muqaddas joylarga sayohat**, **e'tiqodiy yoki ruhiy turizm** — turizmining keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Ziyorat turizmi inson sivilizatsiyasi tarixidagi **eng qadimiy sayohat turi** bo'lib, ming yillar avval paydo bo'lgan. U dunyodagi ko'plab dinlarda mavjud bo'lgan ibodat shakli bo'lib, qadimdan tadqiqotlar obyekti ga aylangan.

Ziyorat joylari ko'pincha **"ilhom olinadigan muqaddas makon"** sifatida qaraladi. Ko'plab ziyoratchilar oqimi tufayli bunday joylar muayyan **ziyosat markazlariga** aylanib ketgan. Ziyorat turizmi, ya'ni diniy sabablar bilan amalga oshiriladigan sayohatlar, **ziyosat tadqiqotlarining** asosiy mavzusi hisoblanadi.

Tadqiqotchi D.L.Gladstone (2013) ta'kidlaganidek, ziyorat turizmi — bu sayohatchining o'z e'tiqodi va dini uchun muhim bo'lgan ibodatxonalar, muqaddas joylar va ramziy markazlarga sayohat qilishini anglatadi. Bu tushuncha ko'pincha **diniy turizm** tushunchasi bilan bog'liq holda ishlatiladi.

Zamonaviy adabiyot ziyoratni keng qamrovli tushuncha sifatida ko'radi — u **din va dindosh bo'lmagan** asoslarga tayangan holda shakllanadi va turli xil fonlardan kelib chiqqan joylarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda ziyorat turizmi o'zining ayrim an'anaviy xususiyatlarini, xususan **diniy belgilarini** yo'qotib borayotgani kuzatilmoqda va u o'zining yangi ko'rinishlarini shakllantirayapti: **dunyoviy ziyorat, ruhiy turizm, cherkov turizmi, transformatsiyaviy turizm** va boshqalar.

Din yoki e'tiqod — bu insoniyatning an'analarga asoslangan, koinot va uni boshqaruvchi kuchlar to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'lgan **ishonch** tizimi sifatida qaraladi. Bu tushuncha doirasida u muqaddaslik g'oyasiga insonning bog'lanishi, diniy ta'limot, dunyoqarash va ijtimoiy tuzilmalar orqali namoyon bo'ladi.

K.Matlovichova va hammualliflar (2015) ta'rifiga ko'ra, **diniy turizm** — bu muqaddas joylar, diniy markazlar yoki shaharlarga safar qilishga asoslangan, asosiy rag'batlantiruvchi omil sifatida diniy ehtiyojga asoslangan **barcha sayohatlarni** o'z ichiga oladi. Bu holatda ziyorat turizmi **diniy turizmning bir qismi** hisoblanadi. Ziyorat turizmi esa ko'proq **ibodat maqsadlari**, diniy marosimlar, ma'naviy faoliyatlar bilan ajralib turadi. Bu turdagi sayohatlar **katta darajada diniy ibodatlariga bag'ishlanadi**, ular orasida duo, ibodat, tafakkur, ma'rifiy marosimlar bor. Ziyoratchilar ko'pincha muqaddas joylarga, ya'ni **ibodat maskanlari, muqaddas markazlar va zikrxonalarga** sayohat qiladilar.

Diniy turizmni ajratishning bosh mezonini uning obyekti bo'lsa, ziyorat turizmining bosh belgisi uning maqsadidan iboratdir. Maqsadiga qarab, diniy turizmning ziyorat, diniy-ekskursion va diniy ilmiy-tadqiqot turizmi kabi turlariga ajratiladi. Jaxondagi diniy turistik obyektlar mohiyati bo'yicha ikki, ya'ni ijtimoiy-madaniy hamda ijtimoiy-tabiiy sinfga ajratildi. Bu ikki sinf diniy kult obyektlari, dafn joylar, diniy ilm va ta'lim markazlari, geologik va geomorfologik, gidrologik, biologik obyektlar kabi 6 ta guruh, ular esa bosh diniy markazlar, ibodatxonalar, monastirlar, maqbara va maqbara majmualari, qabristonlar va qabrlar, diniy ilm markazlari, diniy ta'lim markazlari, muqaddas tog'lar, g'orlar, toshlar, daryolar, ko'llar, buloqlar, daraxtlar kabi 14 ta turga ajratildi.

Konfessional geografiya din va diniy oqimlarning hududiy tarqalishi, uning shakllanishi va dinamikasi, diniy markaz va o'choqlar joylashuvi, ularning ta'sir doirasi, hududlar aholisining konfessional tarkibi va uning dinamikasi, diniy konfessiyalararo munosabatlarining hududiy jihatlarini o'rganuvchi fandir. Sakral geografiya esa turli etnik va konfessional guruhlarda muqaddas deb tanilgan joylarni alohida e'tiborga loyiq madaniy geografik obyekt va tizimlar tariqasida o'rganadi.

Charlz Mann (2011) **National Geographic** jurnalida chop etilgan maqolasida sivilizatsiya va dinning paydo bo'lishi o'rtasidagi murakkab munosabat haqida mulohaza yuritib quyidagi fikrlarni bayon etgan: «Dunyodagi eng mashhur diniy markazlar — o'tmishda ham, hozirda ham ziyorat sayohatlari manzili bo'lgan. Masalan, Vatikan, Makka, Quddus, Bodx-Gaya (Budda ma'rifatga erishgan joy) yoki Kaxokiya (Sent-Luis yaqinidagi Amerika qadimiy indianlari majmuasi) kabi joylarni eslaylik. Bu joylar ma'naviy sayohatchilar uchun obidalar bo'lib, odamlar uzoq masofalarni bosib o'tib, bu muqaddas manzillarni tomosha qilish va ruhan ilhomlanish uchun kelganlar...».

Hozirgi kunda ham bunday ma'naviy sayohatlar — ya'ni, "ruhiy ehtiyojlar" va "tafakkurli tomoshabop sayohatlar" ayrim mamlakatlarda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Italiya, Isroil, Hindiston, Fransiya kabi davlatlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, diniy, e'tiqodiy yoki ruhiy turizm, shuningdek ziyorat sayohatlari — turizm industriyasining doimiy va muhim qismi hisoblanadi.

Diniy turizmni ijtimoiy geografik jihatdan kompleks o'rganish jarayonida konfessional va sakral geografiyadagi bilimlardan ma'lum darajada foydalaniladi. Lekin hududlarning diniy va ziyorat turizmi nuqtayi nazardan salohiyatini baholash, undan oqilona foydalanish yo'llarini asoslash, maxsus turistik marshrutlarni shakllantirish, ular doirasida zarur infratuzilma komplekslarini barpo etishni asoslash, talab va taklif vaziyatini o'rganish va boshqa ilmiy-amaliy

GEOGRAFIYA

masalalarni yechish uchun turizm geografiyasining metodologiya va metodikasi zarurdir. Demak, diniy va ziyorat turizmni ijtimoiy geografik jihatdan tadqiq qilish turizm geografiyasi doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi diniy turistik obyektlar, ularning hududiy tarkibi va klassifikatsiyasi, respublikamizda mintaqaviy ziyorat turistik yo'nalishlarni shakllantirishning ijtimoiy-geografik asoslari xamda diniy turizmning kichik hududlar iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 1-iyul holatiga berilgan ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 1171 ta ziyorat obyekti mavjud bo'lib, eng ko'p ziyoratgohlar Farg'ona (400 ta) va Zarafshon (279 ta) iqtisodiy rayonlarida joylashgan bo'lib, bu borada, ayniqsa, Farg'ona (182 ta) va Samarqand (149 ta) viloyatlari alohida ajralib turadi.

Bu ziyoratgohlar va qadamjolar Farg'ona vodiysida IX-X asrlardan boshlab shakllana boshlagan. Natijada vodiydagi daryolar tizimida havzani butunlay qoplab oluvchi muqaddas qadamjolar vujudga kelgan. R.Y.Rassudova bunday qadamjolarini darajasiga ko'ra 3 ta guruhga ajratadi. Birinchi guruhga vodiydagi butun aholi sig'inadigan 7 ta qadamjoni kiritadi. Ular O'sh, Jalolobod, Aravon, Kampirovot, Qadamjo, Shohimardon, Yigitpirim aholi maskanlarida joylashgandir. Bu qadamjolar Oqbo'ya, Qoradaryo, Aravon, Shoximardonsoy daryolari xavzalarida joylashgan. Ikkinchi guruhga konussimon yoyilmalarning yuqori qismida, sug'orish kanallarining boshlanish joylarida joylashgan qishloqlardagi qadamjolar kiritilib, ular ko'proq Xo'ja, To'ra, Said kabi diniy ulamolar nomi bilan bog'liq. Ularga Vodildagi Chinor ota, Xoji ota, Mozortagi, Sariqo'rg'onidagi Nursuh va Rishton kanallari boshlanadigan joylari G'ovsil A'zam mozori kabi qadamjolar kiritilib, bu ulug' zotlar Shohimardon va So'x suvining «egalari» deb e'tirof etilgan. Uchinchi guruhga esa sug'orish kanallarining etaklaridagi, chashma va buloqlar yordamida sug'oriladigan (xokob usulida) hududlardagi qadamjolar Xonqiz, Chimyon, Arsif, Fayziobod, Yormazor, Satkak kiritilgan.

Taklif etilayotgan «rayonlashtirish»ni ajratishda asosiy tamoyil sifatida tabiatga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi omil sug'orish tizimi olindi. Bunday yondashuvda jamoaning sig'inadigan hududiy majmuasi tarkibi daryo irmoqlari va kanallar bo'yicha o'tkazildi. Bunda vodiydagi 4 ta etnolandshaft mintaqaning deyarli har birida daryo havzasi bo'yicha yuqoridan quyiga qarab tushilsa, alohida etnoekologik rayon va shunga mos keluvchi «muqaddas qadamjolar»lar shakllanganligi kuzatiladi. Har bir rayonning ekologik-turistik funksiyasini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun Shohimardonsoy hududidagi muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar o'rganib chiqildi.

Mazkur hududni tahlil qilish orqali rayonga hos bo'lgan quyidagi umumiy va xususiy belgilarni ajratish mumkin. Birinchidan, rayon hosil qiluvchi omil sifatida daryo havzasi va sug'orish tarmoqlari olingan. Bu havzaning shakllanishi va yagona rayonga birlashtirilishi hududning sug'orib dehqonchilik qilish tarmog'iga tortilishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlash zarur. Ikkinchidan, mazkur rayonning alohida ajralib turuvchi chegaralari mavjudligi kuzatiladi. YA'ni, rayon sharqda Isfayram, g'arbda So'x havzalari bilan janubda esa vodiyning O'ratepa vohasi bilan ajratib turuvchi suvayirg'ich bilan, shimolda esa konussimon yoyilmaning etaklari bilan chegaralanadi. Uchinchidan, rayonning ichki tarkibiy tuzilishi ham o'ziga xos bo'lib, dastlabki rayon daryoning to'yinish hududini, keyingi rayonlar esa daryoning irmoqlari va chiqarilgan yirik kanallar orqali o'tkaziladi. To'rtinchidan, har bir rayon o'zining alohida markaziga va muqaddas maskaniga egaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, butun havza uchun umumiy markaz rolini o'ynovchi eng yirik muqaddas markaz va shahar ham ajratiladi. Mazkur tamoyillar asosida Shohimardonsoy havzasida 4 ta rayon Shohimardon, Vodil, Marg'ilon va Yozyovon rayoni ajratildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bunday rayonlashtirish Farg'ona vodiysidagi barcha yirik daryolar uchun xos bo'lib, ularda ham, bu rayonlar quyida keltiriladigan ekologik vazifalarni bajarib kelgan.

Birinchi Shohimardon rayoni ekologik jihatdan muhim funksiyani bajarib, daryo suvi rejimi miqdorini tartibga solib turgan. Daryolarning suv yig'adigan havzalarini imkon boricha o'zlashtirmaslikka, undagi tabiat ne'matlarini asrab-avaylashga, o'ziga xos «qo'riqxonalar» yaratishga kirishilgan. Har bir daryoga yagona tabiiy tizim sifatida qaralib, uning boshlanishidan quyilish joyigacha bo'lgan hududlarda yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim yaratilgan. Daryolarning yuqori qismi «muqaddas ziyoratgohlar» sifatida himoyaga olingan. U hududlarda yerni haydash, daraxtni kesish, hayvonot dunyosini nobud qilish qattiq qoralangan va taqiqlangan.

O'rganilayotgan mintaqada dehqonchilik kam rivojlangan, asosan tog' bog'dorchiligi, chorvachilik va ziyoratchilarga (hozirgi tushuncha bo'yicha turistlarga) xizmat ko'rsatish tizimi rivojlangan. Aholining anchagina qismi daryoning quyi qismidagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar tomonidan olib kelingan xayr-ehson, nazr-niyoz hisobiga yashagan va tabiatga ortiqcha aralashishga ehtiyoj sezmagani.

XULOSA.

Farg'ona vodiysidagi muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar «kichik biosfera qo'riqxonasi»larini eslatadi Bunday ziyoratgohlarda suvning musaffoligi, turli relyef shakllarini (qoya, tosh, g'orlarni) hamda o'simlik va xayvonot dunyosi vakillarini tabiiy holda saqlanib kelayotganligi diniy ekologik madaniyatning bu hududlardagi ta'siri namunasidir. Jamiyatimiz vakillarining ziyorat madaniyatini, diniy obod-ahloq qoidalariga og'ishmay amal qilishlari ekologik xavf xatarni oldini olish bilan birga bu joylarda diniy turizmni rivojlantirishning muxim omili sifatida qaralmog'i lozim. Farg'ona vodiysida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- Ziyoratgohlarning tarixiy va ma'naviy qiymatini yorituvchi axborot materiallarini ishlab chiqish;

- Turistik marshrutlarni shakllantirish va ularni jahon darajasida targ'ib qilish;
- Mahalliy aholi va tadbirkorlarni ziyorat turizmiga jalb etish;
- Diniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya ishlarini olib borish;
- Ziyoratgohlar atrofida qulay infratuzilmani shakllantirish (yo'l, turar joy, yo'l ko'rsatkichlar va h.k.).

Farg'ona vodiysidagi ziyoratgohlar nafaqat diniy, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ham ega bo'lib, diniy turizmni rivojlantirish orqali mintaqada iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik birgalikda harakat qilganda, vodiydagi ziyorat turizmining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022-2026- йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022-й. 28-январ ПФ -60.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-2019- йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора тadbirlar тўғрисида ПҚ 3217 сонли қарори. 17.08.2017. Mann, (2011) The Birth of Religion, National Geographic, June 2011, 34-59.
3. Jesenský, M.; Kornecká, E.; Molokáč, M.; Tometzová, D. Development of Pilgrimage Tourism in Slovakia over the Past Decades: Examples of Selected Pilgrimage Sites. Heritage 2024, 7, 1801–1821. <https://doi.org/10.3390/heritage7030085>.
4. Turner, V.; Turner, E. Image and Pilgrimage in Christian Culture; Colombia University Press: New York, NY, USA, 1978.
5. Timothy, D.J.; Olsen, D.H. Tourism, Religion and Spiritual Journeys; Routledge: London, UK, 2006.
6. Gregorová, B. The issue of pilgrimage tourism from the point of view of geography. Acta Geoturistica 2019, 10, 57–67.
7. Gladstone, D.L. From Pilgrimage to Package Tour: Travel and Tourism in the Third World; Routledge: London, UK, 2013; pp. 1–235.
8. Matlovičová, K.; Klamár, R.; Mika, M. Turistika a Jej Formy; Prešovská Univerzita, Grafotlač Prešov: Prešov, Slovakia, 2015; 550p.
9. Наргиза Уриновна Комилова. Влияние этноэкологических культур на экосистему Ферганской долины. Вестник науки и образования 2 (12 (36)), 73-75, <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-etnoekologicheskikh-kultur-na-ekosistemu-ferganskoy-doliny>
10. Nargiza Urinova Komilova. Territorial features of the organization of settlements. 3/6. 809-813. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/territorial-features-of-the-organization-of-settlements>
11. NU Komilova. Ethnogeographic aspects of social environmental problems. 3/6. 12-18. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/ethnogeographic-aspects-of-social-environmental-problems>
12. Komilova Nargiza Urinova. Gradual study of geographic features of ethno-ecological culture. European science review, 82-84. <https://cyberleninka.ru/article/n/gradual-study-of-geographic-features-of-ethno-ecological-culture>
13. Komilova Nargizahon Urinova. Geographical roots and basic concepts of ethnoecology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (4), 1748-1750. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=4&article=295>